

LANGAR OTA MASJIDI ME'MORIY QIYOFASI: TARIXIY RIVOJLANISH VA BADIY XUSUSIYATLARI

Dosmetova Zuxra Shavkatovna

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institute Amaliy bezak san'ati kafedrasini mudiri, Arxitektura fanlari nomzodi, professor

Saburova Yangiljon Ikram qizi

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn Instituti San'atshunoslik va amaliy san'at fakulteti San'at asarlari va me'moriy yodgorliklarni ta'mirlash yo'nalishi 1-bosqich magistratura talabasi, Xalqaro Turon yozuvchilar uyushmasi a'zosi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Langar ota masjidining bunyodkorligiga izoh berilgan. Asosiy e'tibor masjidning qurilish tarixi va olib borilgan tadqiqotlar bayon etilgan. Maqolada, Langar ota masjidi haqida yozma manbalardan ham foydalanganligi va masjidda olib borilgan ishlar aks etirilgan.

Kalit so'zlar: Langar ota masjidi, madaniy me'ros, tarixiy yodgorliklar, me'morchilik san'ati, masjid, xonaqoh, obyektlar, ziyoratgohlar.

Madaniy meroslar jamiyat asosini, xalqimizning avloddan-avlodga o'tib kelayotgan ma'naviy qadriyatlari va an'analarini mustahkamlaydigan omil hisoblanadi. Tarixiy va madaniy yodgorliklar har bir odamga ta'sirini ko'rsatib, o'ziga maftun qiladi va g'ururlantiradi. Shu bois ularni saqlash, eng avvalo, faqatgina davlatning emas, balki har bir fuqaroning burchi, maqsadiga aylanishi lozim. Muqaddas qadamjolar hamda ziyoratgohlar, e'tiborga tushgan joylarni tiklash va ta'mirlash ishlari butun mamlakat bo'ylab amalga oshirilmoqda.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasining davlat siyosati yo'nalishlaridan biri, bu — o'tmish qa'ridan yetib kelgan boy tarixiy-madaniy merosimizni saqlash. Mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki yillarida qabul qilingan "Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida", "Muzeylar to'g'risida", "Arxeologiya merosi obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida"gi qonunlar asosida insoniyat sivilizatsiyasi rivojlanishida muhim o'rin egallagan qadimgi va o'rta asrlarda mavjud bo'lgan shaharlar xarobalari, monumental san'at yodgorliklari, alohida aholi ziyoratgoh joylari, me'morchilik merosi yodgorliklarini saqlab qolish, ta'mirlash va o'rganishda davlatimiz tomonidan keng miqyosdagi ishlar amalga oshirilmoqda.

Ajdodlarimiz tomonidan mahorat bilan bunyod qilingan va bugungi kungacha saqlanib kelinayotgan, ularning nomini asrlar osha abadiylashtirgan me'morchilik tarixiy majmualardir. Yuzlab qadimgi, o'rta asrlardagi me'morchilik durdonalari xalqimizning yuksak ijodkorlik imkoniyatlaridan darak beradi. Bularning barchasi bizni hamisha g'ururlanib yashashga undaydi. Demak, tarixiy, ma'naviy va madaniy merosni saqlash mamlakatimizda yashayotgan har bir fuqarolarning burchidir.

Tarixiy yodgorliklar – xalqlar hayotidagi muhim tarixiy voqealar, jamiyat va davlat taraqqiyoti hamda tarixiy madaniyati va binolar, inshootlardir. Umumiy xususiyatlariga ko'ra, tarixiy yodgorliklar, me'moriy va mahobatli san'at yodgorliklariga bo'linadi. Tarixiy yodgorliklarning turlari nihoyatda xilma-xil. Ularning qadimgilari yodgorliklar jumlasiga mansub bo'lib, bular – ko'hna shaharlar xarobalari, qo'rg'onlar, manzilgohlar, inshootlarining qoldiqlari, anhorlar, yo'llar, tosh haykalchalar,

tosh bitik va suratlar, buyumlar, aholi maskanlarining tarixiy madaniy qatlamlarida jamlangan. Tarixiy yodgorliklar mamlakat, xalq tarixiy-madaniy merosining bir bo‘lagi hisoblanadi. Shuningdek, ma’lum sana, voqea va shaxslarni abadiylashtirish maqsadida yaratilgan san’at asarlari: haykal, maqbara, qabrtoshi, ehrom, zafar toqi va hokazolar ham tarixiy yodgorliklar sirasiga kiradi. Madaniy va tarixiy yodgorliklarni saqlash vazifasi umumdavlat ahamiyatiga ega bo‘lib, u ma’naviy tarbiyaning asosiy qismini tashkil qiladi. Madaniy va tarixiy yodgorliklar muhofazasi – insoniyat madaniy merosini saqlash va muhofaza qilish yo‘lidagi xalqaro, davlat va jamoatchilik tadbirlari tizimidan iborat. Tarixiy yodgorliklar, me’moriy obidalar, adabiyot, tasviriy va amaliy san’at asarlari, topilmalar, milliy va xalqaro ahamiyatga ega bo‘lgan majmualar va boshqa davlat tomonidan muhofaza etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach o‘z taraqqiyotining yangi bosqichiga o‘tdi. Xalqimiz o‘zining boy tarixiy, madaniy va ma’naviy merosiga ega bo‘ldi. Ming yillik me’morchilik va shaharsozlik tariximizni, hattoki borib ko‘rish arxitekturaviy yodgorliklarni nafaqat ziyorat qilishga, balki ularni o‘rganishga va restavratsiya qilishga ham keng imkoniyatlar yaratildi. Me’morchilik bino va inshootlar qurishning o‘ziga xos texnikasini, san’atini, xalq tarixini, uning ijtimoiy-siyosiy qudratini, diniy va dunyoviy qarashlarini, madaniy-maishiy havotini ma’lum shaklda mujassam etadi. Me’mor binokor usta; bino va inshootlarning loyihasini yaratuvchi va ularning qurilishini nazorat qilib boruvchi bosh mutaxassisdir.

Yurtimizda tarixiy yodgorliklar, me’moriy obidalar va qadamjolar bir necha ming asrda barpo etilgan. Bu yodgorliklar O‘zbekistonning o‘tmishi va tarixi haqida so‘zlaydi. Ajdodlarimizning bizlarga qoldirgan qadimiy boy me’rosi hisoblanadi. Qadimiy ziyoratgohlardan biri Qamashi tumanining Langar qishlog‘ida dengiz sathidan ming metr balandlikda barpo etilgan Langar ota masjidi va Shayx Abulhasan maqbarasidir.

Qiziltepa qishlog‘idan 25-30 kilometr olislikda, Hisor tog‘ tizmalari oralig‘idagi Langar qishlog‘ida joylashgan qadimiy masjid XIV asr oxirida Shayx Abulhasan asos solgan. Shayxning piri u kishiga “Mingan tuyangiz uchinchi marta cho‘kkan joyda masjid barpo eting” degan ekan. Tuyasi so‘nggi bor hozirgi Langar qishlog‘i, ya’ni masjidning o‘rniga cho‘kibdi va Shayx Abulhasan shu yerga masjidning poydevorini qo‘yibdi. Mahalliy aholi masjid qurilishida ko‘maklashgan ekan. Ushbu masjidda kufiy xatida bitilgan Qur’oni karimning yer yuzidagi eng mo‘tabar nusxalaridan biri - Katta Langar Qur’onining faksimili nusxasi saqlanadi.¹

Alisher Navoiy o‘zining “Nasoyimul-muhabbat” nomli asarida 770 mashoyix haqida ma’lumot keltirib, uning 628-bandida Abulhasan Ishqiy haqida shunday yozadi: “Shayx Abulhasan Ishqiy (sirlari muqaddas bo‘lsin)” Xorazmdandur. Shayx Boyazid Ishqiy Quddusi sirrihukim silsilasi sultonul-orifin Boyazid Bistomiy rahimollohuga yetar, anga tarbiyat qilgandir. O‘z zamonida faqir ahlining muqtadosi erish, balki mashoyixning peshvosi. Murid va asxosi ko‘p, karomat va maqomati andin ko‘proq”.


Masjid 2 ta xonaqoh, 1 ayvon, 4 mehrob, 19 ta ustun va 7 eshikdan iborat. 2 ta xonaqohi katta masjid va kichkina masjid deb nomlanadi. Avval kichkina masjid qurilgan, namozxonlar ko‘payganligi sababli keyinchalik katta masjid va ayvoni qurilgan. Langar ota masjidi islom olami

¹ <https://muslim.uz> langar-ota-masjidi-haqida

me'morchilik san'ati bilan mahalliy xalq hunarmandchilik uslublari uyg'unligida barpo etilgan. Me'moriy obida Markaziy Osiyoda naqshinkorligi, bejirimliligi bilan ajralib turadi.



Xususan, masjid tomining balandligi, poydevoriga qo'yilgan toshlarning ulkanligi, ustun va yog'ochlarning kattaligi obidani o'ta mahobatli qilib ko'rsatadi. Masjid katta xonaqohining ustuni tepasida hijriy 1362-yil (milodiy 1905-yil)da usta Muhammadiyor tomonidan ta'mirlangan. Langar ota masjidi balandligi 11 metr, bo'yi va eni 32 metrdan iborat. Uning shiftiga tassajuft taxlangan bo'lib mehrob qismi nozik did va yuksak mahorat bilan bezatilgan. Mehrob atrofi suls yozuvidagi bitiklar joylashgan. Shuningdek, moviy fonga oq rangli yozuvlar bitilgan rang-barang koshinlardan yaratilgan ajoyib mozaika kishi diqqatini o'ziga jalb qiladi. Bundan tashqari, zarhal devor bo'ylab ikki xil yozuv: arabcha hamda naqshga o'xshab ketadigan noma'lum yozuvlar muhrlangan.



Inson hayoti va faoliyati uchun zarur bo'lgan makonning loyihasini yaratish va uni qurish me'morchilik san'atining mazmunini tashkil etadi. Turar joylar, yo'llar, xiyobon-u maydonlar yirik suv inshoot va madaniy xordiq uchun mo'ljallangan me'moriy majmualar hammasi shu san'atning turli ko'rinishlaridir. Bular uning bosh quruvchisi–arxitektori me'mori tomonidan loyihalashtiriladi va rahbarligida amalga oshiriladi. Bino inson tomonidan ma'lum maqsadda quriladigan inshootlarning bir turi bo'lib, unda turli ijtimoiy, siyosiy, xo'jalik va ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirish uchun moddiy muhit yaratiladi. Ya'ni ularning bajaradigan vazifasi aniqlanadi uni to'g'ri hal qilish esa me'morlik asarini yaratishdagi asosiy omillardan hisoblanadi.²

Binolarning sanab o'tilgan turlari o'zlarining me'moriy-konstruktiv tuzilishlari va tashqi qiyofalari bilan farq qiladi. Me'morchilik ham san'atning boshqa turlari singari davlat tarixi, madaniy ma'naviy mavqeini o'zida aks ettiradi, xalqning turmush tarzi, estetik qarashlarini namoyat etadi. Shuning, uchun bu san'at haqiqiy ravishda tarixiy voqealar solnamosi, davr oynasi sifatida e'tirof etiladi.

Xalqlar, millatlar, shuningdek, davrlar san'ati bir-biriga qo'shib borib rivojlanadi, o'zgacha namunalarini yuzaga keltiradi. Shuning uchun ham san'atda yangicha oqimlar, yo'nalishlar, uslublar shakllanmoqda. Madaniyat taraqqiyoti natijasida, xalqlar o'rtasidagi madaniy, ma'naviy aloqalar rivojlanib borar ekan, san'atga bo'lgan talab kundan-kunga oshib bormoqda. O'zo'zidan ma'lumki, umumiy ma'naviyat oshgan sari san'atga bo'lgan iste'mol qilish hissi kuchayadi. Bu borada oddiy bir misol sifatida bozorlar va savdo do'konlaridagi narsa va buyumlarni qanchalik rang-barang tasvirlar bilan bezatilishini bir ko'z oldimizga keltiraylik. Xalq amaliy bezak san'ati har bir xalqda mavjud bo'lib, ular bir- biridan yuqorida qayd qilinganidek, amaliy san'atning janrlari, buyumlar tayyorlashda qo'llanadigan material, shakl, tuzilish, rang, bezak, o'lchovlar jihatidan bir-biridan farq qiladi.

Xalq amaliy san'ati azaldan kishilar turmushini bezash vositasi bo'lib kelgan. Qadimda uylar, masjidlar, madrasalar ana shu san'at turi yordamida bezatilgan va maxsus bo'yoqlarga, sopollarga, koshinlarga, rangin ipaklar yordamida kashtalarga bitilgan. Bu bezaklarning namunalari hozirga qadar saqlanib qolgan. Biz zamondosh bo'lgan xalq ustalari va chevarlar bu an'analarni davom ettirmoqdalar. O'zbekiston amaliy bezak san'atida ham soddalashtirilganlik va badiiylik tufayli turli tabiiy shakllarning bezak elementi sifatida qo'llanilishi alohida ramziy ma'noga ega. Masalan, naqshda g'o'za elementining qo'llanilishi hosilning milliy iftixor sifatida nishonlanishini bildiradi.

O'zbek ustalarining yaratgan asarlari zamirida olamni uning butun nafosati bilan chuqur his etish, inson ichki dunyosini bilish va xalqning serqirra iste'dodi samaralaridan bahramand bo'lish g'oyalari yotadi. Chinakam san'at ustasi bo'lgan odamgina mana shunday asarlar yaratishi va shunday asarlarga yangi-yangi san'at ustalarini tarbiyalashi mumkin. O'zbek xalqi ikki ming yil davomida amaliy san'atning shunday ajoyib namunalarini yaratgan va yaratmoqdaki, ular o'zlarining yuksak badiiy mahorat va nazokat bilan ijro etishlari bilan bugungi kunda ham kishilarni hayratga solmoqda. Ko'p yillik tajribalar, o'lmas iste'dod va xalq tafakkuri bilan yo'g'rilgan har bir chinakam san'at asari ranglar sehr-jodusi bilan qalbimizga ilhom bag'ishlab, ma'naviy dunyomizni yanada boyitadi.

Yuqoridagi ma'lumotlardan kelib chiqib, asrlar davomida ulug' ajdodlarimizning milliy-ma'naviy merosi shaxs kamolotiga juda ahamiyatligi, ajdodlarimizning bizga qoldirgan ma'naviy

² "Me'morchilik asoslari" M.Muxamedova Toshkent-2018

xazinalaridan o‘rinli foydalanish, ularni yosh avlodga ko‘proq tanishtirish, o‘rgatish kerak bo‘ladi. Ana shu ma‘noda, sharqona bezaklar yoshlarni estetik qobilyatlarini shakllantirishda va ma‘naviy yuksak, go‘zal va nafasatli bo‘lib tarbiyalanishlarida ahamiyati beqiyosdir. Ko‘zlangan maqsad talabalarning va yoshlarning milliy arxitektura yodgorliklarga bo‘lgan qiziqishlarini yanada orttirish hamda estetik qobilyatlarini shakllantirish hisoblanadi.

Langar ota masjidi islom olami me‘morchilik san‘ati bilan mahalliy xalq hunarmandchilik uslublari uyg‘unligida barpo etilgan. Bu me‘moriy obidani Markaziy Osiyoda yagona desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Masjid tomining balandligi, naqshlarning bejirimliligi bilan ajralib turadi. Masjid devorining ichki tomoniga o‘rta asrlar uslubida bezak berilgan, o‘n ikkita derazasi, mehrob va minbari tepasiga namoz farzlari, oyatlar va Fotiha surasi bitilgan. Bundan tashqari, zarhal devor bo‘ylab ikki xil yozuv: arabcha hamda oddiy naqshga o‘xshab ketadigan noma‘lum yozuvlar muhrlangan. Langar ota masjidi zamonaviy materiallar va konstruksiyalar asosida, milliylikni o‘zida jo etgan, umumiylik bilan uyg‘unlashgan xolda yaratilgan. Buyuk bobolarimiz qurdirgan imoratlarini asragan holda ajdodlarimizning bizlarga qoldirgan boy madaniy me‘rosini asrab avaylashimiz kerak. Darhaqiqat, obida juda ko‘rkam va did bilan nafislikda yaratilgan. Har bir naqsh alohida kasb etib, inson hayotining mazmunini va mohiyatini o‘zida aks etgan. Ranglarning rangbarangligi hamda takrorlanmasligi o‘zgacha go‘zallik kashf etgan. Jumladan, katta xonoqohning zeb-ziynatidagi ta’sirchanligi koshinkori bezaklaridagi gullaridadir. Mehrob va devoridagi naqsh bezaklari yaxshi saqlangan. Sariq va havorang koshin parchalari yopishtirilgan ko‘k havorang va oq hoshiyalar berilgan. Bu hoshiyalar mehrobgga juda ko‘rkamlik baxsh etganligiga guvohi bo‘lasiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. M. M. Vaxitov, SH.R.Mirzayev “Me‘morchilik” Tafakkur nashriyoti Toshkent-2010
2. <https://muslim.uz>
3. oyina.uz/uz <https://tarixiy.yodgorliklar>
4. <https://meros.uz/object/langar-ota>
5. <https://zamin.uz/uz/madaniyat>
6. S.Ziyodulloyeva “XIV asr Qashqadaryo viloyati Langar ota masjidining badiiy bezaklarini ta’mirlash loyihasi” Bitiruv malakaviy ishi
7. Hasanova Feruza Rahmatullayevna “Me‘morchilik asoslari” Toshkent-2010